

SHARQ MASH'ALI



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
ilmiy-uslubiy, ma'rifiy jurnali

3
2024



Ilmiy-uslubiy,
ma'naviy-ma'rifiy jurnal.
Ta'sischi:
O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
1992-yildan chiqa boshlagan
Jumal O'zbekiston Respublikasi
Toshkent shahar matbuot va axborot
boshqarmasi ro'yxatidan qayta o'tgan
(№ 02-0055 26-sentyabr 2014-yil)

Bosh muharrir:

G. RIXSIYEVA (prof., f.f.n.)

Tahrir hay'ati:

D. SAYFULLAYEV (prof., t.f.d.) (bosh
muharrir o'rinbosari)

X. ALIMOVA (prof., f.f.d.) (mas'ul kotib)

A. MANNONOV (prof., f.f.d.)

Q. SODIQOV (prof., f.f.d.)

R. XODJAYEVA (prof., f.f.d.)

SH. SHOMUSAROV (prof., f.f.d.)

Q. OMONOV (prof., f.f.d.)

U. MUHIBOVA (prof., t.f.d.)

D. MUHIDDINOVA (f.f.d.)

X. HAMIDOV (f.f. bo'yicha PhD)

B. ABDUHALIMOV (prof., t.f.d.)

A. XODJAYEV (prof., t.f.d.)

M. IS'HOQOV (prof., t.f.d.)

X. FAYZIYEV (dos., t.f.n.)

D.XODJIMURATOVA (t.f. bo'yicha PhD)

SH. YOVQOCHEV (prof., s.f.d.)

N. ABDULLAYEV (dos., s.f.d.)

A. VAHOBOV (prof., i.f.d.)

R. ABDULLAYEV (prof., i.f.d.)

I. MAVLANOV (prof., i.f.d.)

R. BAHODIROV (prof., fal.f.d.)

E. IZZETOVA (prof., fal.f.d.)

A. SHONAZAROVA (AQSHning Kolumbiya
univ. prof.)

G. GLIZON (AQSHning New Mexico univ. prof.)
ONO MASAKI (Yaponiyaning Tsukuba
univ. prof.)

LI DJI IN (Koreya Respublikasining Xankuk
chet tillar univ. prof.)

V. MESAMED (Isroilning Quddus univ. prof.)

A. GURER (Turkiyaning Anqara univ. prof.)

A. VOROBYEV (Rossiya Fanlar akademiyasi,
Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi)

G. AVDA (Misr Arab Respublikasining Xelvon
univ. prof.)

A. TOHIR (Misr Arab Respublikasining "Al-
Hivar" siyosiy tadqiqotlar markazi direktori)

S. KURAYM (f.f. bo'yicha PhD)

H. BAYDEMIR (Turkiyaning Otaturk univ. prof.)

SHARQ MASH'ALI

ISSN 2010-9709

MUNDARIJA № 3, 2024-yil

Adabiyotshunoslik

Xodjaeva P. Коранические образы и мотивы в макамах великого мыслителя из Хорезма Махмуда аз-Замахшари	3
Aхмедова III. Образ песчаного корабля пустыни - верблюда в рассказах Сулеймана Аш-Шати	10
Gafurova X. Yaponiyada zamonaviy fanda uta-monogatari adabiy janrini o'rganish	15
Qoraboyev S. Pashtu adabiyotida tarixiy roman va uning janri masalasi	23
Qosimova G. Yomixon janri rivojida Ueda Akinari merosi	30
Qalandarov M., Xushnazarova G. Kamoliddin Husayn Voiz Koshifiy "Lub ul bob-masnaviy" hamda Odina Eshonning "Miftoh ul-asror" asarlarning ilmga oid qismlari tahlili	41
Jabborov Sh. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida "tabaqa" va uning o'ziga xos xususiyatlari	51

Tilshunoslik

Mirziyatov Sh. Termin yasash tendensiyalarining Sharq mamlakatlaridagi holatlari	55
Abduvaliyeva O'. Pashtu tilidagi kopulyativ frazologik birliklar	61
Muxammadjonov A. Abu Hilol al-Askariyning الفروق اللغوية "Al-Furūq al-lughawiyyah" asarining struktur va semantik tahlili	67
Saidov U. Konsept: tushunchasi, tarixi va masalaning diaxronik qo'yilishi	80
Baylarova L. Methodology based on the cultural model of linguistic and cultural texts in teaching German	88
Giyazova B. Ma'budalar - sarasvati, lakshmi va durga bilan bog'liq atamalarining sinonimik (jihatdan) tahlili	91
Rasulova K. "Navoiy" romani turkcha tarjimalarida frazeologizmlarning berilishi	107

Nashrga tayyorlovchilar: J. ISMOILOV, A. ZIYODOV L. HAMDAMZODA, H. SULAYMONOVA Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya va tarix yo'nalishi bo'yicha ilmiy maqolalar chop etiladigan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan. Jurnal original-maket asosida bosildi. Sharq mash'ali, 2024 yil 3-son. e-mail: nashriyot@tsuos.uz web-site: www.tsuos.uz Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Bosishga ruxsat etildi: 30.09.2024 Bichimi 84x108 1/16 Shartli 11,5 b.t. 50 nusxada bosildi. Buyurtma № Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining kichik bosmaxonasi. Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 20-uy.	Tarix	Madraimov A., Madraimov A. Tarixchi G'iyosiddin Xondamirning Boburshunoslikka qo'shgan katta hissasi 117 Abdullayev U. Amir Temur va Yildirim Boyazid o'rtasidagi muhoraba avvalida Yaqin Sharqdagi xalqaro vaziyat 125 Karimov N. "Navodir al-usul" asarida islom psixologiyasining yoritilishi 139 Hasan N. Ahmad Yassaviyning turkiy xalqlar tarixida tutgan o'rni haqida 144 Mirzoraximov A. Kitobat va uning rivojlanish bosqichlari 151 Alizade O. Tamgalarla Türk Rakamlarının Oluşturulması..... 159
	Tashqi siyosat	Sadibaqosev H. Markaziy Osiyo davlatlarining xavfsizlik borasida AQSH va Xitoy bilan hamkorligi 165 Rizayev A. Saudiya Arabistonining xalqaro-siyosiy identikligi 172 Аллахвердиева Л. Развитие магистерского образования в Азербайджане в процессе интеграции в европейское высшее образовательное пространство..... 180
	Tarjima	To'xliyev B. Ajdodlardan kelgan o'gitlar (Davomi. Boshi o'tgan sonda.) 193



voqeasidan tortib, qushlarning Hudhud yo'lboshchiligidagi Simurg'ni izlab yetti vodiyan, ya'ni Talab, Ishq, Ma'rifat, Istig'no, Tavhid, Hayrat, Faqr Fano manzillaridan o'tishlari va Simurg'ni topolmay, Simurg' — Simurg'ni izlashga chiqqan si-murg' (o'ttiz qush)ning o'zi o'zini qidirganligi yuksak sufiyona ma'no tashiydi. Bu asardan chiqadigan xulosa ham bitta: Olam — borliq Alloh taborakning zuhuridan iboratdir. Qushlar (odamlar) Simurg'ni izlab (ya'ni Xudoga yetishish uchun) yo'lga chiqishlari va bunda Allohni izlashga umr sarflaydigan darveshlar yetti riyozat bosqichidan, ya'ni daraja va manzilat hisoblanmish Talab, Ishq, Ma'rifat, Istig'no, Tavhid, Hayrat, Faqr Fano kabi tabaqadan o'tadilar va ruhga aylanib, Alloh azza va jalla bilan qovushadilar.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy nazarda tutgan tabaqalar shunday yuksak maqomki, inson axloqda kamolot kasb etib, qaysidir ma'noda ruhan va ma'nan ilohiylashishi, ya'ni farishtaday zotga aylanishi shartlarini ko'rsatib bergan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. "Nasoyimul muhabbat min shamoyimil futuvvat". Nashrga tayyorlovchi, so'zboshi, izoh va ko'rsatkichlar muallifi – Hamidxon Islomiy – T.: "Movarounnahr" nashriyoti, 2017 yil, -B. 575.
2. Hakim at-Termiziyniing «Xatm ul-avliyo». – Toshkent, «Guliston» jurnali, 2000 yil, 5-son, 26-bet.
3. Abu Abdurrahmon Muhammad ibn Husayn Azdi Sulamiy «Tasavvuf va uning haqiqati haqida muqaddima» - T.: «Nilol-Nashr» nashriyot-matbaasi, 2020 yil. -B. 112 bet. ISBN: 978-9943-5980-3-4
4. Fariduddin Attor. Tazkiratul avliyo / A.Madramimov tarj. –T.: G'.G'ulom, 2013.



TERMIN YASASH TENDENSIYALARINING SHARQ MAMLAKATLARIDAGI HOLATLARI

MIRZIYATOV SHUXRAT

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent, TDSHU

Annotatsiya: Maqolada Arab, Turkiya va Eron davlatlarida terminologiya bo'yicha tashkil etilgan "Akademiya"lar haqida fikr yuritiladi. Har bir davlat til siyosatining bu mamlakatlaridagi termin yasashga qo'shgan hissasi, bu "Akademiya"larning umumiy va farqli tomonlari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: termin, terminologiya, arab davlatlari til Akademiyalari, turk tili Akademiyasi, fors tili va adabiyoti Akademiyasi.

Abstract: The article examines the activities of the "Academies" established in the Arab states, Turkey, and Iran in the field of terminology. It analyzes the contribution of each country's language policy to term formation and compares the common and distinctive features of these "Academies."

Key words: term, terminology, language academies of the Arab states, Turkish Language Academy, Academy of Persian Language and Literature.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы деятельности «Академий», созданных в арабских странах, Турции и Иране в сфере терминологии. Анализируется вклад языковой политики



каждого из указанных государств в процесс формирования терминов, а также сопоставляются общие и отличительные черты данных «Академий».

Ключевые слова: термин, терминология, языковые академии арабских стран, Академия турецкого языка, Академия персидского языка и литературы.

XX asr ilmiy-texnik termin va tushunchalarning G'arb va Sharqda birdek yuksak oqim asosida yuzaga kelishi bilan ajralib turadi. 1930-yillarga kelib, ham G'arbda, ham Sharq mamlakatlarida birvarakayiga terminologiya sohasini o'rganish bo'yicha harakatlar yuzaga keldi.

G'arb davlatlarida asoslangan ilmiy fikrlar va g'oyalar ostida terminologiya maktablari shakllangan bo'lsa, Sharq mamlakatlarida esa xuddi shu vaqtda terminologiyaga uzgacha uslubda yondashildi. Ya'ni, tilning ijtimoiy funksiyasini saqlab qolishga urinish – purizm harakatlari avj oldi. Manbalarda "...Purizm harakatlarining boshlanishi Yaqin Sharq mintaqasining ba'zi joylarida, masalan, Turkiyada Eronda va Misrda bir vaqtga to'g'ri kelganligini kuzatish mumkinligi" haqida xabar beriladi.

Arab davlatlari til akademiyalari. Arab tili faqatgina arab davlatlariga emas, balki O'rta Osiyo, Eron va Kavkaz xalqlari tillariga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Shuning uchun ham, mazkur davlat tillarida arabcha so'z va so'z birikmalarining uchrashi tabiiy hol. Terminlarni standartlashtirish jarayonida esa arabiy o'zlashmalarning ham o'rni borligini unutmazlik lozim.

XX asrga kelib, tilda yangi neologizmlarning paydo bo'lishi va kundalik hayotda tez-tez uchrovchi terminlar nafaqat soha mutaxassislariga balki, umumiste'moldagi leksika uchun ham tushunarsiz bo'lib boraverdi. Natijada arab tiliga kirib kelayotgan o'zlashmalarga arab tilida variantlar taqdim qilish, arab tili mavqeini saqlab qolish maqsadida 1933-yilda rasmiy ravishda Misr (Qohira)da "Misr akademiyasi" (keyinchalik– Akademiya, deb yuritiladi) ochilgan. Shundan so'ng Sharq mamlakatlari – Iroq, Iordaniya, Tunis, Sudan, Falastinda bir qator "Arab tili akademiya"lari tashkil etildi. Har bir Akademiya ma'lum o'zlashmaga o'z nuqtayi nazaridan yondashib, terminlar taqdim qila boshlagan. Bu Akademiyalar tomonidan taklif qilinayotgan terminlarni standartlashtirish uchun CERTA (Centre d'etudes et de recherches en terminologie arabe) - "Arab terminologiyasini ilmiy o'rganish markazi" va Agency Universitary de la Francophonie (Frankofoni Universitetlar agentligi) kabi "markazlar" tashkil etilgan. Shuningdek, Marokash davlatining poytaxti bo'lmish Rabot shahrida "Arabiylashtirish bo'yicha muvofiq-lashtiruvchi byuro" o'z ishini boshlagan.

Arab leksikologiyasi bilan shug'ullangan bir qator olimlar arab tilida termin yasallishining to'rttagacha usuli mavjudligi borasida xulosalar berganlar. Arab tilshunoslari Sabri Ibrohim as-Said, Ali al-Qosimi va Muhammad al-Tavonjilar termin hosil bo'lishi haqida quyidagi bir-biriga yaqin fikrlar bildirganlar:

1. Tarjima (ya'ni kalka). Bu guruhga ma'lum o'zlashmaga arab tilida mavjud bo'lgan, o'sha tushunchaga ma'nosi jihatidan "teng" bo'lgan terminlar kiritiladi.

2. So'z yasallishi. Ma'lumki arab tili flektiv tillar safiga kiradi. Shuning uchun ham arab tilida so'z yasallishi borasida boshqa tillarga nisbatan bir qator farqlovlar mavjud. Masalan, o'zak undoshlar va ular bilan bog'liq so'z yasallishi arabiy grammatik qoidalarga to'liq rioya etishni talab qiladi.

3. Leksik-semantik usulda termin yasallishi. Bu usul arab tili termin yasallishida nisbatan kam qo'llaniladigan metod sanaladi. Masalan, قاطرة *yataratun* 'teplovoz' termini arab tilida qo'llaniluvchi "karvonning avvalida keluvchi tuya",-degan so'zga nisbatan qabul qilingan. Bu guruhga oid terminlar juda oz miqdorni tashkil etadi.

4. Abbreviatura. Arab tilida avvaldan abbreviaturalar yasalgan va yozuvda ham ifodalangan. Bugungi kunda ham shu kabi holatlarni kuzatish mumkin.

5. Arabiylashtirish. Ikki turdagi arabiylashtirish farqlanadi: 1) o'zlashmani hech qanday o'zgarishsiz o'zlashuvi; 2) fonetik va grammatik moslashuvini boshidan o'tkazgan terminning o'zlashuvi.

Bularga qo'shimcha sifatida, arab tilining termin yasash imkoniyatlarini o'rganib tahlil qilgan tadqiqotchi A. A. Mustafayeva qo'shma va birikma terminlar yasashining morfologik-sintaktik bosqichining quyidagi usullarini keltiradi:

a) Ellipsis usuli – tarkibiy (birikma) termindagi bir yoki bir necha belgining tushib qolishi. Masalan, المملكة العربية السعودية *al-mamlakat ul-arabiyat us-saudiya* 'Saudiya Arabistoni qirolligi' terminini السعودية *as-saudiya* 'Saudiya' kabi qo'llash mumkin.

b) Kompozitsiya usuli – bir so'zda ikki yoki undan ortiq o'zak morfemaning birikuvi: رأسمال *rasmal* 'kapital' va boshqalar.

s) abbreviatsiya – birikma terminning qisqartmasi. قىمىنطقى *qabmantiqiy* 'mantiqiy o'ylaguncha' ya'ni قبل *qabl* ('to') + منطقى *mantiqiy* ('mantiqiy').

Boshqa tillar terminologiyasiga nisbatan arab tilida bir tushuncha uchun ikki dubletdan, ya'ni ham arabiy, ham o'zlashmadan foydalanish hollari tez-tez uchraydi. Masalan, 'velosiped' termini uchun دراجة *darajatun* yoki بسكليت *bisiklit*, kompyuter termini hisoblangan 'kamera' uchun صوارة *savaratun* yoki كاميرا *kamira* terminlari qo'llaniladi. Ammo bu terminlardan arab davlatlarining hammasida ham foydalanilmaydi.

Arab tilidagi o'zlashmalar tasnifi borasida ham bir qator fikrlarni uchratish mumkin. Masalan, ibn Kamal Pasha o'zlashmalarni to'rt guruhga taqsimlaydi:

1) Arab tilida mavjud bo'lgan tub so'zning semantik maydoni o'zgarib, ma'lum soha terminologiyasiga termin bo'lib o'tgan so'z – o'zlashma;

2) Biron-bir fonetik o'zgarishga uchramagan va shundayligicha qabul qilingan so'z – o'zlashma;

3) Arab tili so'z yasash modellari asosida yasalgan, ya'ni kalkalangan so'z – o'zlashma;

4) Fonetik jihatdan o'zgarish kiritilgan va imloviy jihatdan arabiy yozuvda ifodalangan so'z – o'zlashma.

Garchi Akademiyaning faoliyati davom etsada, o'zlashmalarning bu qadar tilga tez singishi arab lug'atchiligida ham yetarli muammolarni keltirib chiqardi. Birinchidan, o'zlashma terminning arabiy variantini kiritish uchun avvalo, o'zlashmaning o'zi yozilishi talab etildi; Ikkinchidan, bir terminga arab tilida bir necha variantning mavjudligi ularning lug'atda ifodalanishi borasida noqulayliklar yaratdi. Bu holat arab tilining barcha soha terminologiyasida kuzatiladi. Shuning uchun ham terminlarning yagona variantini ishlab chiqish va o'zlashmalarning tildagi ta'siri masalasini o'rganish arab tilining dolzarb muammolaridan biriga aylangan.

Arab davlatlari terminlarini ishlab chiqish bo'yicha yuqorida keltirilgan bir qator tashkilotlar va akademiyalar faoliyat yuritishiga qaramasdan, arab terminologiyasining dunyo tan olgan terminologiya maktabi mavjud emas. Tildagi bunday holatni davlat tomonidan boshlangan til siyosatining zifligi bilan bog'lash o'rinli bo'ladi.

Turk tili termin yasash akademiyasi. 1923-yilda Turkiyada eskilik sarqitidan voz kechish va yangi zamon talablariga xos qarorlar qabul qilishga yuzasidan 1932-yilda Kamol Otaturk tomonidan til islohatiga doir reforma o'tkaziladi. Asosiy nuqta sifatida arab harflariga asoslangan alifboni lotin grafikasiga o'zgartirish va o'zlashmalar o'rniga turk tili imkoniyati doirasida so'zlar-neologizmlar taqdim qilish masalasi ko'rilgan. Turk tili so'z yasash imkoniyati boy tillardan biri ekanligini inobatga olganda, bu tilda har qanday o'zlashmaga ekvivalent bera olish imkoni mavjud.

Turk tilining umumiy tilshunoslik masalalariga bag'ishlangan asarlarida olimlar yasama va affikslar yordamida yasalgan so'zlarni bir-biridan ajratib ko'rsatishni, shu asosda, barcha turkiy



soʻzlarni quyidagi guruhlarga boʻlib oʻrganishni taklif qiladilar. Yaʼni, 1) tub soʻzlar; 2) affikslar yordamida yasalgan soʻzlar; 3) yasama soʻzlar – tarkibiy kelib chiqishi affikslar yordamida yasalgan, ammo zamonlar oʻtib yasamaga aylangan soʻzlar; 4) qoʻshma soʻzlar; 5) frazeologik va ideomatik soʻzlar; 6) oʻzlashmalar.

Turk tili terminologiyasini oʻrgangan olim E. Xuberning qayd etishicha, turk tilida termin yasashda quyidagi usullar ustuvor sanaladi:

1) affiksatsiya; 2) qoʻshma termin yasash; 3) soʻz maʼnosining oʻzgarishi (torayishi va kengayishi); 4) metafora; 5) metonimiya; 6) taqlid soʻzlar; 7) oʻzlashuv; 8) qisqartma va abbreviaturalar hosil qilish.

Turk tilida termin hosil qilish usullari borasida Ye. V. Kraynyuchenkonning bildirgan fikri diqqatga sazovor. Sababi, uning bildirgan fikrlari va takliflari umumiy terminologiyadagi termin yasash talablariga mos keladi. Olim quyidagi usullarini ajratib koʻrsatadi:

1. Soʻz yasalishi. Turk tilida mavjud boʻlgan soʻz yasash modellari va affikslari yordamida yasama termin yasash. Uning quyidagi usullari keltiriladi:

2. Affiksatsiya usuli; 2) Qoʻshma termin yasash usuli; 3) Abbreviatura hosil qilish; 4) Konversiya usuli; 5) Qayta nomlash (maʼlum soʻz semantik maydonining oʻzgarishi: torayishi yoki kengayishi natijasida yangi maʼnoga ega boʻlish);

3. Termin oʻzlashtirish. Bu usulning ikki turi farqlanadi: 1) tashqi oʻzlashuv – maʼlum terminni shundayligicha, oʻzgarishsiz oʻzlashuvi; 2) ichki oʻzlashuv – terminning fonetik, grafik oʻzlashuvi;

4. Kalkalash – maʼlum oʻzlashmani struktur jihatdan har bir morfemasiga mos morfema taqdim qilishdir.

Yuqorida sanab oʻtilgan termin yasash usullari tilning ichki imkoniyatlari sanaladi. Ulardan farqli ravishda hukumat til tarkibini “turkiylashtirish” maqsadida “Turk dil kurumi” Akademiyasining oldiga quyidagi umumiy talablarni qoʻygan: 1) qadimgi turkiy soʻzlarni jonlantirish (muomalaga kiritish); 2) maʼmuriy, ijtimoiy va adabiy jarayonlarda turkiy lahjalaridagi soʻzlardan hosil qilingan terminlardan foydalanish; 3) morfologik (asosan affiksatsiya) usul bilan termin yasalishini taʼminlash; 4) oʻzlashma soʻzlarni “turkiylashtirish”; 5) kompozitsiya usuli orqali termin yasash.

Qanchalik turk tilini oʻzlashmalardan “tozalash”ga harakat qilinmasin, mazkur til leksikasi shunchalik oʻzlashmalar bilan boyib bormoqdi. Shuncha yillardan beri turk tili doirasida olib borilayotgan til islohatlariga qaramay, bu tilning dunyo tan olgan terminologiya maktabi mavjud emas.

Fors tili akademiyasi. Eronda XX asrning boshiga kelib, yaʼni 1906-1911-yillarda “Konstitutsion inqilob” boʻlib oʻtdi. Shuning natijasida fors tilida “soʻz yetishmovchiligi” boshlandi, yaʼni gʻarb tillariga oid va fors tiliga yot boʻlgan soʻzlar til tarkibiga kirib keldi.

1936-yilda Eronda hukmronlik qilgan Rizoshoh fors tili leksikasi tarkibidan arab va boshqa tillardan kirib qolgan oʻzlashmalarni chiqarib tashlash, oʻrniga fors tili imkoniyati doirasida ekvivalent keltirish hamda tilning sofliğini saqlab qolish maqsadida *فرهنگستان ایران farhangestān-e irān* “Eron akademiyasi”ni tashkil etdi. Bu tashkilot 1941-yilgacha oʻz faoliyatini davom ettirgan.

Keyinchalik, 1968-yilda ikkinchi Akademiya oʻz ishini boshladi. Ammo mazkur akademiya 1979-yilgacha, yaʼni Islom inqilobigacha faoliyat yuritdi. Bu inqilob mamlakatda turgʻunlik davrini keltirib chiqardi. Mazkur vaziyat 1991-yilgacha davom etdi.

1991-yilda uchinchi *فرهنگستان زبان و ادبیات ایران farhangestān-e zabān va adabeyāte irān* “Fors tili va adabiyoti akademiyasi” tashkil etildi. Bu akademiya to hozirgi kunga qadar barcha sohalarga birdek oʻzlashmalarga forsiy muodil taklif qilish bilan shugʻullanmoqda. Bu Akademiya oʻzining *اصول و ضوابط وaze gʻrīnī osul va zavābet-e vāžegozini* “Soʻz tanlashning usul va qoidalari” yoʻriqnomasida quyidagi ustivor yoʻnalishlarni belgilab chiqqan. Bu yoʻriqnoma xalqaro

terminologik standart hisoblanmish – ISO 704 yo'riqnomasida belgilangan termin yasash talablariga to'liq mos keladi. shuningdek, Eron Akademiyasi termin yasash bo'yicha xususiy so'z yasash usullarini ham taklif qilgan bo'lib, bu holat o'rta va qadimgi fors tili so'z elementlarini jonlantirish evaziga hosil qilingan. Natijada, fors tili leksikologiyasi terminologik fondning ortishi kuzatilmoqda. Adabiyotlarda bu vaziyatni hosil qiluvchi bir qator omillar keltiriladi:

1. So'z o'zlashtirish. Fors tilida ekvivalent berishning iloji bo'lmagan va baynalminal xarakterdagi terminlarning o'zini qoldirish qulay bo'lgan taqdirdagina ruxsat etiladi.

2. Kalkalash. Kalkalash, nafaqat fors, balki boshqa tillarda ham leksik fondning boyishi uchun xizmat qiluvchi bosh omil sanaladi. Fors tilida kalkalashning 1) frazeologik kalkalar; 2) so'z yasovchi kalkalar (slovoobrazovatelnye kalki); 3) yarim kalkalar; 4) semantik kalkalar kabi turlari orqali bir qator terminlar hosil qilinmoqda.

3. So'z yasash usullaridan foydalangan holda termin yasash. Bu usul termin yasashining eng asosiy yo'llaridan biri sanaladi. Barcha so'z yasash modellari yordamida istalgan soha tushunchasi uchun termin taqdim qilish imkoni mavjud.

4. Birikmalarning leksikalizatsiyalashuvi. Bu usul orqali yasalgan terminlar uch bosqichni bosib o'tadi: 1-bosqich: so'z birikmasining terminga aylanishi; 2-bosqich: so'z birikmasining goh birikma, goh so'z, goh qo'shma so'z ko'rinishida qo'llash; 3-bosqich: birikmaning "yakuniy so'z" yoki "yakuniy termin"ga aylanishi.

5. Terminologizatsiyalashuv jarayoni. Jamiyat, insonlar hayotidagi maishiy so'zlarning terminlashuvi termin hosil qilishning yana bir muhim, shuning bilan birga oson bo'lmagan usuli sanaladi. Shuningdek, bu jarayonda eng muhimi, so'zlar ma'nosining torayishi va kengayishi borasidagi nazariy masalalar ustuvor ekanligini qayd etgan.

2012-yilda Eron Zabul universiteti ingliz tili kafedrası o'qituvchilari M.D. Far va M. Ya. Muqaddamlar tomonidan e'lon qilingan maqolada esa fors tilida termin hosil bo'lishida dunyo terminologiyasida qo'llaniluvchi quyidagi umumiy termin yasash metodlaridan foydalanilayotganligi qayd etilgan: a) ikki yoki undan ortiq morfemalarning birikuvidan termin hosil qilish; b) prefiks yoki suffikslar ishtirokida termin hosil qilish; s) birikma so'zlarni qisqartirish orqali akronim va abbreviaturalar hosil qilish; d) o'zga tildan so'z o'zlashtirish orqali termin hosil qilish.

Ishlab chiqilgan yo'riqnoma va olimlar taklif qilgan termin yasash usullaridan farqli ravishda, keyingi vaqtlarda tilda termin hosil bo'lishi ikki usulda kechmoqda: bir tomondan, Eronning "Fors tili va adabiyoti akademiyasi" tomonidan taklif qilingan, tasdiqlangan rasmiy terminlar tashkil qilsa, ikkinchi tomondan, jarayonning o'zida yuzaga kelayotgan, qo'llanilayotgan norasmiy hamda individual ravishda ishlatilayotgan terminlardan iborat bo'lib qolmoqda. Shuning uchun bo'lsa kerak, Eronda, dunyo tilshunosligi tan olgan terminologiya maktabi mavjud emas. Tilda yuz beradigan jarayonning barchasi "Akademiya" tomonidan boshqariladi.

Xulosa o'rnida, Sharq mamlakatlari Akademiyalarining *umumiy jihatlari* quyidagilardan iborat:

1. Arab, Turk va Eron til akademiyalari ma'lum siyosiy vaziyatda, milliy tilning ijtimoiy funksiyasini saqlab qolish, tilni o'zlashmalardan "tozalash" maqsadida hukumat tomonidan tashkil etildi;

2. Har bir Akademiya qoshida o'zlashmalarga milliy tildagi terminlarni yasash, taqdim qilish va targ'ib qilish guruhlarini shakllantirildi;

3. Akademiyalarda terminlarni hosil qilish bo'yicha quyidagi o'xshash usullardan foydalanilgan:

1) Tilning so'z yasash imkoniyatlaridan unumli va oqilona foydalangan holda nazarda tutilayotgan tushunchaga mos yangi termin taklif qilish;

2) Tilda mavjud bo'lgan so'zlarga yangi ma'no o'ttenkalarini yuklash orqali termin hosil qilish;



- 3) Kalkalash orqali milliy tilda termin yaratish;
- 4) Soʻz oʻzlashtirish;
- 5) Birikma terminlar hosil qilish;
- 6) Abbreviatura va akronimlar hosil qilish.
4. Akademiyalarning betinim takliflari natijasida tilda dubletlar sonining ortishi kuzatildi;
5. Baynalminal terminlarni ham tilning ichki imkoniyati orqali hosil qilish taklifi ilgari surilgan;
6. Ilmiy tilda va ommaviy axborot vositalarida milliy tildagi termindan, amaliy jarayonlarda esa oʻzlashmalardan foydalanish avj oldi. Natijada aksariyat sohalarda, masalan, kompyuter saboqlari, maishiy-texnika, transport, turizm yoʻnalishlarida oʻzlashma terminlarni oʻzida qamragan darsliklar chop etildi.

Akademiyalarning *farqlov jihatlari* quyidagilarda koʻzga tashlanadi:

1. Har bir davlat Akademiyalari shu kunga qadar turli rivojlanish yoʻllarini bosib oʻtdi. Masalan:

- 1) arab davlatlarida, bugungi kunda termin taqdim qilish uchun 7 ta “Akademiyalar” faoliyat yuritadi.
- 2) Turkiyada 1932-yilda Kamol Otaturk tomonidan shakllantirilgan Akademiya hozirgi kungacha terminlar taqdim qilishda davom etmoqda;
- 3) Eronda oʻz davriga muvofiq “Birinchi”, “Ikkinchi”, “Uchinchi” Akademiyalar shakllantirilgan boʻlib, oʻzining ishlab chiqqan nizomiga muvofiq terminlar yasaydi.

2. Shunga qaramasdan:

- 1) Arab davlatlarida Akademiyalar taqdim qilgan terminlarni muvofiqlashtiruvchi byuro faoliyat yuritadi va mazkur tashkilot tasdiqlagandan soʻng maʼlum termin foydalanish uchun taqdim qilinadi;

- 2) Turkiyada “Turk dil kurumi”, yaʼni “Turk tili akademiyasi” quriltoylarida har bir termin muhokama qilinadi va tasdiqlangandan soʻng ommaga eʼlon qilinadi;

- 3) Eronda *فرهنگستان زبان و ادبیات ایران* *farhangestān-e zabān va adabeyāte irān* “Fors tili va adabiyoti akademiyasi”da soha mutaxassislari tomonidan taklif etilayotgan termin avval Akademiya yigʻilishlarida uzoq muhokama etiladi, keyin shu termin yuzasidan ommaviy axborot vositalari yordamida ijtimoiy soʻrovnoma oʻtkaziladi. Maʼqul topilgan termin hukumat tasdigʻi uchun taqdim qilinadi. Mazkur termin tasdiqdan oʻtganidan soʻng foydalanishga tavsiya etiladi.

3. Arab tilida dubletlar shu tildagi yangi hosil qilinayotgan terminlar hisobiga toʻgʻri kelsa, turk va fors tillarida oʻzlashmalarga berilayotgan stilistik dubletlar hisobiga toʻgʻri keladi.

1. Shuningdek, har bir tilning oʻz ichki imkoniyati ham mavjudki, termin yasashda bir-biridan soʻz yasash usullari va modellariga koʻra farq qiladi.

